

Ona tili va adabiyot

1. Qaysi javobda tarkibida **ot + ot** qolipidagi qo'shma ot ishtirok etgan bog'langan qo'shma gap berilgan?

A) Ukam sariq rangli kiyimlarni yoqtiradi, menga esa ko'proq jigarrang yoqadi.

B) Laylakqor yog'gan o'sha mudhish tun xayoliga keldi-yu, yuragi gupullab ura boshladi.

C) Ular o'sha yili yeryong'oqdan mo'l hosil olishgan edi, shu sababli akasining to'yini o'tkazib olishdi.

D) Insonning dunyoqarashini o'zgartirish qiyin, ammo yillar davomida buni amalga oshirsa bo'ladi.

2. *Ilm ikki xil bo'ladi biri qalbdagi ilm ikkinchisi tildagi ilm*

Ushbu gapda tushirib qoldirilgan tinish belgilari qaysi javobda to'g'ri tartibda berilgan?

A) : - , - . B) , - , - .

C) : , . D) - : , : .

3. Qaysi javobdagi gaplarda ajratib ko'rsatilgan so'zlar o'zaro ma'nodosh bo'la olmaydi?

A) Har bir ishda zahmat bor, hech narsaga oson erishib bo'lmaydi.

Bu haqida o'ylashning o'zi azob, uka, shuni tushunasanmi?

B) Biz yoshlarni mustaqil hayotga tarbiyalashimiz uchun avvalo kasb-hunar o'rgatishimiz kerak.

Mamlakatda erkin fikrlovchilar qancha ko'p bo'lsa, taraqqiyot shuncha tez bo'ladi.

C) U qandaydir ichki sezgi bilan bugungi imtihondan ko'ngli to'q edi.

Birovning tuyg'ularini his qilish uchun ham toza qalb bo'lmog'i lozim.

D) Yakunlangan ish haftasi biz uchun juda unumli bo'ldi.

Nosirjon kun bo'yi shu ishlarini tugata olmay xunob bo'ldi.

4. Qaysi javobdagi chiqish kelishigini unga ma'nodosh birorta kelishik qo'shimchasi bilan almashtirib qo'llab bo'lmaydi?

A) Konsertga tashrif buyurganlardan hech biri ketish haqida o'ylamas, butun diqqati sahnada edi.

B) Nozima tug'ilgan kuniga akasi kelmaganidan qattiq xafa bo'lgan edi.

C) Mana bu mevalardan oling, o'g'lim, o'zimizning bog'niki.

D) Otam shu hafta oxirida chet el safaridan qaytadi.

5. Qaysi javobdagi barcha so'zlarda nuqtalar o'rniga **o** unlisi yoziladi?

A) z...mon, direkt...r, ...rkestr

B) sh...lg'om, torm...z, p...midor

C) t...mosho, sav...dxon, b...hodir

D) atm...sfera, b...hor, hash...rot

6. Qaysi javobda ravishning ikki ma'no turiga oid ravishlar ishtirok etgan?

A) Hozirgi kunda xalq hunarmandchiligiga juda katta e'tibor berilmoqda.

B) U ba'zan oylab qorasini ko'rsatmay ketardi.

C) Sodiqjon shoshilib uyga kirdi, biroq akasini ko'rib eshikda xiyla turib qoldi.

D) Bola to'satdan berilgan bu savolga kutilmaganda ancha jiddiylik bilan javob berdi.

7. *Nodirjon uka, ancha o'tirdim, endi bizga ruxsat bersangiz, qorong'i tushmasdan uyga yetib olsak.*

Ushbu gapdagi sof fe'llar haqida qaysi ma'lumot to'g'ri emas?

A) Ushbu gapda shart mayli shakli orqali buyruq mayli ma'nosi ifodalangan.

B) Ushbu gapda II shaxs ko'plik orqali II shaxs birlik ma'nosi ifodalangan.

C) Ushbu gapda o'tgan zamon shakli orqali kelasi zamon ma'nosi ifodalangan.

D) Ushbu gapda I shaxs ko'plik orqali I shaxs birlik ma'nosi ifodalangan.

8. Qaysi gapda **o'xshatish-qiyoslash** ma'nosini ifodalash uchun qo'llangan yuklama ishtirok etgan?

A) Shoir she'rlarida so'zlar gavhar kabi jilvalanardi.

B) Mana shunga o'xshash qo'rqinchli fikrlar unga sira tinchlik bermaydi.

C) Qizim, doim gulday ochilib yurgin, yuzing hech so'limasin.

D) Atrofga sokinlik cho'kkandan so'ng go'yo butun shahar, butun o'lka oromga berilgandek edi.

9. *Tilimizning softligi haqida qayg'urish shu millat farzandi bo'lgan har bir insonning burchidir.*

Ushbu gapdagi tobe bogʻlanishlar haqida qaysi maʼlumot toʻgʻri?

- A) Ushbu gapda kelishik va koʻmakchilarsiz bogʻlangan aniqlovchili soʻz birikmalari mavjud.
 B) Ushbu gapda hokim qismi sifat boʻlgan soʻz birikmasi mavjud.
 C) Ushbu gapda tobe qismi toʻldiruvchi vazifasini bajargan otli soʻz birikmasi mavjud.
 D) Ushbu gapda hokim qismi olmosh boʻlgan soʻz birikmasi mavjud.

10. Muallif gap qismida otlashgan sifat qatnashgan koʻchirma gapli qoʻshma gap berilgan javobni aniqlang.


- A) Otam har doim: «Yaxshi bilan yursang, yetarsan murodga», – der edi.
 B) «Koʻpdan quyon qochib qutulmas», – deydi donolar.
 C) Rais ohista, ammo qatʼiy qilib: «Hech kim ketib qolmasin, bu masalani yana muhokama qilamiz», – dedi yigʻilganlarga.
 D) «Guruhimizda bilimdonlar koʻp, – dedi oʻqituvchi gʻurur bilan, – shu sababli sizdan koʻnglim toʻq».

11. *Bolalar eng quvonchli xabarni yurtdoshlariga yetkazish uchun oshiqayotgan elchilardek guvullab Usmonlarnikiga joʻnashdi.*

Ushbu gapdagi gap boʻlaklari haqida qaysi maʼlumot toʻgʻri emas?

- A) Ushbu gapda aniqlovchining kesimga tobelanishi kuzatiladi.
 B) Ushbu gapda toʻldiruvchining holga tobelanishi kuzatiladi.
 C) Ushbu gapda holning aniqlovchiga tobelanishi kuzatiladi.
 D) Ushbu gapda aniqlovchining toʻldiruvchiga tobelanishi kuzatiladi.

12. Quyidagi tasvirga mos ravishda toʻgʻri shakllantirilgan ergashgan qoʻshma gapni aniqlang.



A) Muvaffaqiyatga erishish uchun qancha isteʼdoding boʻlsa, shuncha mehnat ham qilishing kerak.

B) Inson biror ishda muvaffaqiyat qozonishi uchun, avvalo, isteʼdodga ega boʻlishi lozim, ammo eng asosiysi maqsadga yarasha mehnat qilishdir.

C) Biror ishda muvaffaqiyatga erishish uchun isteʼdoddan koʻra koʻproq mehnat qilish zarur.

D) Faqat qobiliyat bilan biror muvaffaqiyatga erishib boʻlmaydi, chunki muvaffaqiyat uchun isteʼdoddan ham koʻproq mehnat qilish lozimdir.

13. Qaysi javobda xalq dostoni qahramonlaridan biri Xuroyim haqida toʻgʻri maʼlumot berilgan?

A) U qalmoq alp lardan birini belidan olib chalqarmon qilib yiqitgan chapdast, epchil alp qiz edi.

B) U nard oʻyiniga mohir edi, kim oʻziga sovchi boʻlib kelsa, nard oʻyinida yutishni shart qilib qoʻyardi.

C) U asir tushgan yorini qutqarish uchun uning yurtiga mayna qush orqali xat yuborib, yordam soʻraydi.

D) U safarga ketgan podshoh yorining talabiga koʻra oʻz kanizagi bilan mamlakatni boshqarib turadi, ammo fitna tufayli dorga osishga buyuriladi.

14. Qaysi asarda podshohga qarshi isyon qilgan qahramonni «Misr podshohi maymunlari» haqidagi masalda keltirilgan oʻyinchi maymunga oʻxshatgan, keyinchalik uning oldiga sulh uchun yuborilgan Xoja Dehdor ismli obraz tasvirlangan?

A) «Yulduzli tunlar» (Pirimqul Qodirov)

B) «Zulmat ichra nur» (Mirkarim Osim)

C) «Ulugʻbek xazinasi» (Odil Yoqubov)

D) «Oʻtkan kunlar» (Abdulla Qodiriy)

15. Qaysi javobda Turdi Farogʻiy ijodiga oid toʻgʻri tahlil keltirilgan?

A) Shoirning «Topmadim» radifli gʻazalida jonidan oʻzga vafodor yor, koʻnglidan boshqa mahrami asror topa olmagan oshiq iztiroblari aks etgan.

B) Shoirning «Yod mandin kim berur: yaxshi zamonlar koʻrdiman...» deb boshlanuvchi muxammasida bir paytlar yaxshi hayot kechirgan insonning zamona nosozliklari

tufayli hayoti o'zgarib ketib, qiyinchiliklarda qolgani iztiroblari aks etgan.

C) Shoirning «Bulbuldayinkim faryod etarman...» deb boshlanuvchi muxammasida yorga erisha olmagan oshiqning kechinmalari, ilohiy muhabbatdan g'afolatda qolgan insonning iztiroblari aks etgan.

D) Shoirning «Fidoi xalqim...» deb boshlanuvchi g'azalida mazlum xalq ahvoliga, uning mashaqqatli hayotiga cheksiz afsuslangan ijodkor iztiroblari aks etgan.

16. O'tkir Hoshimovning «Dunyoning ishlari» qissasida hikoya qilinishicha, muallifning onasi (Poshsha xola) farzandlariga «hech qattiq gapirmas, mabodo xafa qilib qo'ysa, birpasdan keyin o'zi yalinar edi». Ona faqat bir marta o'g'lini juda yomon qarg'agan edi. Bu voqea nima sababdan ro'y beradi?

A) muallif dadasining dutorini sindirib qo'ygani uchun

B) muallif tirik yetim o'sayotgan Xo'jani xafa qilgani uchun

C) muallif qo'shnisiga o'g'ri deya tuhmat qilinishiga sabab bo'lib qolgani uchun

D) muallif og'ir yillarda tovoqdagi talqonni atayin to'kib yuborgani uchun

17. Adibning «Tegirmonimdan xatlar» deb nomlangan birinchi kitobida hikoyalari jamlangan edi. Keyinchalik yoshlikdagi mashaqqatli yillari to'g'risida avtobiografik xarakterga ega bo'lgan «Kichkintoy» nomli roman yozadi.

Ushbu ma'lumotlar qaysi ijodkorga tegishli?

A) Jek London B) Alfons Dode

C) Rashod Nuri Guntekin D) Anton Chexov

18. Qaysi asarda «Qish qo'niqi – o't» («Qishning ziyofati – olov[dir]»), «Yazmas atim – yag'mir, Yangilmas bilga – yangqu» («Xato qilmaydigan mergan – yomg'ir, Yanglishmaydigan dono – aks sado»), «Emgak ekinda qolmas» (Mehnat bekor ketmaydi) kabi turkiy xalqlarga xos eng qadimgi maqollar keltirilgan?

A) «Qutadg'u bilig» (Yusuf Xos Hojib)

B) «Qisasi Rabg'uziy» (Rabg'uziy)

C) «Devonu lug'otit turk» (Mahmud Koshg'ariy)

D) «Devoni hikmat» (Ahmad Yassaviy)

19. Qaysi javobda Erkin Vohidov ijodiga oid to'g'ri ma'lumot keltirilgan?

A) Shoir she'rlaridan birida yosh shoirlarga murojaat qilar ekan:

«Menga qulluq qilma,

Yurt tuprog'in o'p,

Unga qullar emas, fidolar kerak.

Uning sen-u mendek shoirlari ko'p,

Buyuk elga endi daholar kerak», – deb yozadi.

B) Shoir she'rlaridan birida baliq ovi tasviri misolida katta maqsadlar sari intilayotgan yosh bola obrazi:

«Bundan keyin to'r tashlayman,

Tashlasam ham zo'r tashlayman,

Qo'lga tushar bari oxir» misralari orqali tasvirlangan.

C) Shoir she'rlaridan birida Vatan «jahonlarga timsol shoh-u sulton»ga, «oy-u quyosh ko'rpa solgan ayvon»ga o'xshatilib:

«Dil porasi, ko'z qorasi sen o'zingdirsan,

Mening ko'nglim sen, aslida, sen ko'zimdirsan.

Tomirimda tomir yoygan ilk so'zimdirsan,

Ilk og'rig'im, ilk yomg'irim, naysonim, Vatan».

D) Shoir she'rlaridan birida hatto «har bir bosqinchini qo'noq bilgan el» haqida so'z borib:

«Manglayga kaft qo'yib olisga boqsam,

Edildan ko'rinar bo'ylaring, o'zbek.

Tush kabi jimirlab ming yil oqsa ham,

Noming aytar Enasoylaring, o'zbek» misralari bitilgan.

20. Qaysi hikoyat Sa'diy Sheroziyning «Guliston» asarida keltirilgan?

A) Halol rizq topish va xalq malomatiga qolmaslik uchun o'ziga Ollohdan yaxshi bir hunar berishni so'ragan Dovud payg'ambar haqidagi hikoyat.

B) Kemasi halokatga uchrab, bir orolga borib qolgan va o'sha orol aholisi tomonidan taxtga o'tkazilgan kishi haqidagi hikoyat.

C) Otasi bergan pullarning bir qismini yetim-yesirlarga berib, bir qismini yig'ib qo'yib boyib ketgan saxovatli Said haqidagi hikoyat.

D) Noqobil farzandi tufayli zindonga tushgan darvesh haqidagi hikoyat.

Alisher Navoiy qalamiga mansub ushbu g'azalni o'qing va quyidagi ikkita topshiriqni bajaring.

*Meni men istagan o'z suhbatiga arjumand etmas,
Meni istar kishining suhbatin ko'nglum pisand etmas.*

*Ne bahra topqamen andinki, mendin istagay bahra,
Chu ulkim, bahrayi andin tilarmen, bahramand etmas.*

*Netay hur-u pari bazminki, qatlim yo hayotimg'a,
Ayon ul zahrchashm aylab, nihon bu no'shxand etmas.*

*Kerakmas oy ila kun shaklikim, husn-u malohatdin,
Ichim ul chok-chok etmas, tanim bu band-band etmas.*

*Kerak o'z chobuki qotilvashi majnun shiorimkim,
Buzug' ko'nglumdin o'zga yerda javloni samand etmas.*

*Ko'ngul uz charx zolidin, firibin yemakim, oxir,
Ajaj sarrishtasidin o'zga bo'ynungg'a kamand etmas.*

*Ul oy o'tlug' yuzin ochsa, Navoiy, tegmasin deb ko'z,
Muhabbat tuxmidin o'zga ul o't uzra sipand etmas.*

21. Alisher Navoiy qalamiga mansub ushbu g'azal mazmuni haqidagi **xato** fikrni belgilang.

- A) Ushbu g'azalda boshqalarga bahra yetkazish imkoniga ega bo'lmagan kishiga ko'z tutish o'rinli emas degan fikr ifodalangan.
- B) Ushbu g'azalda o'zi ishongan insonlardan, yaqin suhbatdosharidan jabr-u jafo chekkan lirik qahramon iztiroblari aks etgan.
- C) Ushbu g'azalda yor yuzini ochsa, ko'z tegmasligi uchun muhabbat tuxumidan isiriq sochishga tayyor oshiq tasvirlangan.

D) Ushbu g'azalda hur-u parilarning bazmi ham e'tiborini tortmaydigan lirik qahramon tasvirlangan.

22. Alisher Navoiy qalamiga mansub ushbu g'azal haqidagi **to'g'ri** ma'lumotni aniqlang.

- A) Ushbu g'azalda talmeh san'atidan foydalanilgan.
- B) Ushbu g'azalda mutlaq qofiya qo'llangan.
- C) Ushbu g'azalda «d» tovushi raviv bo'lib kelgan.
- D) Ushbu g'azalda radif qo'llanmagan.

Nodira qalamiga mansub g'azaldan olingan ushbu parchani o'qing va quyidagi ikkita topshiriqni bajaring.

*Doda keldim, ey salotin sarvari, dodim eshit,
Sen shah-u, men benavo, lutf ayla, faryodim eshit.*

*Barcha yor-u oshnodin aylading begonalig',
Necha kunlar bo'ldi, hargiz qilmading yodim eshit.*

23. Nodira qalamiga mansub ushbu parcha haqidagi xato hukmni aniqlang.

- A) Ikkinchi baytda oshiq yor tufayli barcha yaqinlaridan uzoqlashgani ifodalangan.
- B) Birinchi baytda yor oldiga arz qilib kelgan lirik qahramon tasvirlangan.

C) Ikkinchi baytda yor oshiqni anchadan beri esga olmaganini ifodalangan.

D) Birinchi baytda agarda yor arzlarini tinglamasa, oshiqning benavoga aylanishi ifodalangan.

24. Nodira qalamiga mansub ushbu she'riy parcha haqidagi to'g'ri hukmni aniqlang.
A) She'riy parchada tazod va tajnis san'ati qo'llangan.

B) She'riy parchada «m» tovushi raviy bo'lib kelgan.
C) She'riy parchada radif qo'llanmagan.
D) She'riy parcha qofiyasi mutlaq qofiya sanaladi.

Matnni o'qing va ushbu matn asosida berilgan quyidagi uchta topshiriqni bajaring.

DUNYOQARASH

1. Ikki aka-uka bor edi. Akasi sahiy, omadli va boy, ukasi esa o'g'ri, yomon inson edi.
2. Sud oldidan muxbirlar o'g'ri ukaga savol berildi:
– Qanday qilib jinoyat yo'lga kirib qoldingiz?
– Mening bolaligim og'ir o'tgan. Otam ichardi, onamni va meni kaltaklardi. Yana kim bo'lishim mumkin edi?!
3. Keyin muxbirlar akani savolga tutishdi:
– Siz shuncha yutuqlarga qanday qilib erishdingiz?
– Mening bolaligim og'ir o'tgan. Otam ichardi, onamni va meni kaltaklardi. Yana kim bo'lishim mumkin edi?!

25. «DUNYOQARASH» nomli ushbu matnning 1- va 2-bandlarida ro'y bergan xatoliklar turi qaysi javobda to'g'ri berilgan?
A) 1 – imloviy xatolik; 2 – qo'shimcha qo'llash bilan bog'liq uslubiy xatolik
B) 1 – imloviy xatolik; 2 – imloviy xatolik
C) 1 – qo'shimcha qo'llash bilan bog'liq uslubiy xatolik; 2 – qo'shimcha qo'llash bilan bog'liq uslubiy xatolik
D) 1 – qo'shimcha qo'llash bilan bog'liq uslubiy xatolik; 2 – imloviy xatolik

C) Vahobjon Zokirov nihoyatda vazmin, yetti o'lchab bir kesadigan odam edi.
D) Sportchimiz ketma-ket yo'llagan kuchli zarbalarga raqibi dosh berolmadi.

26. «DUNYOQARASH» nomli ushbu matnda tagiga chizilgan so'z bilan bir xil ma'noda qo'llangan so'z ajratib ko'rsatilgan gapni aniqlang.
A) Ukajon, ozgina bosiq bo'ling, bir marta adashibdi, uning uchun men uzr so'rayman.
B) Bunday qiyin paytlarda bir-birimizga yordam berishimiz lozim.

27. «DUNYOQARASH» nomli ushbu matn mazmuniga oid to'g'ri fikrni aniqlang.
A) Ushbu matnda oilaviy muhit bolaning kelajakda yomon ishlarga qo'l urishiga sabab bo'lishi mumkin degan g'oya ilgari surilgan.
B) Ushbu matnda insonning kelajakda kim bo'lishi, avvalo, uning o'ziga, tafakkuriga bog'liq degan g'oya ilgari surilgan.
C) Ushbu matnda otaning yomon xulqi farzandlarga ta'sir qiladi degan g'oya ilgari surilgan.
D) Ushbu matnda nosog'lom oilada tarbiya topgan bolalar kelajakda turli muammolarga duch keladi degan g'oya ilgari surilgan.


Matnni o'qing va ushbu matn asosida berilgan quyidagi uchta topshiriqni bajaring.

«SAMARQAND TIL MAKTABI» METODLARI

1. Bugungi kunga «Samarqand til maktabi» o'quv markazida 8 ta fan bo'yicha 1000 dan ziyod o'quvchilar ta'lim olib kelmoqda. Ularning katta qismi, ya'ni 400 dan ortig'ini ona tili va adabiyot fanidan tahsil olayotgan o'quvchilar tashkil etadi.

2. Ona tili va adabiyot fanidan kirish imtixonlaridagi testlar amaliy savollar, nazariy savollar, matnni o'qib tushunish va adabiyotga oid materiallarni bilishga oid bir necha turlarga bo'linadi. Ona tili va adabiyot fanidan darslarda o'quvchilarni amaliy savollarga tayyorlash uchun «Savolni oxiridan boshlab yechish», nazariy savollarga tayyorlash uchun «Noto'g'risini chiqarib tashlash», matnni o'qib tushunishga oid savollarga tayyorlash uchun esa «Tahliliy o'qish» kabi metodlardan foydalanilmoqda.

3. «Samarqand til maktabi» o'quv markazida tahsil olayotgan to'rt nafar o'quvchining ona tili va adabiyot fanidan berilgan 60 ta test savolida qaysi turlar bo'yicha xatoga yo'l qo'ygani tahlil qilinishi natijasida ular bilan qaysi metodlar bo'yicha ko'proq ishlash kerakligi aniqlandi. Quyidagi diagrammada ushbu ma'lumotlar aks etgan:



28. «SAMARQAND TIL MAKTABI» METODLARI mavzusidagi ushbu matnning 1-va 2-qismlarida ro'y bergan xatoliklar turi qaysi javobda to'g'ri berilgan?

- A) 1 – imloviy xatolik; 2 – qo'shimcha qo'llash bilan bog'liq uslubiy xatolik
 B) 1 – imloviy xatolik; 2 – imloviy xatolik
 C) 1 – qo'shimcha qo'llash bilan bog'liq uslubiy xatolik; 2 – qo'shimcha qo'llash bilan bog'liq uslubiy xatolik
 D) 1 – qo'shimcha qo'llash bilan bog'liq uslubiy xatolik; 2 – imloviy xatolik

29. «SAMARQAND TIL MAKTABI» METODLARI mavzusidagi ushbu matn mazmuni haqida qaysi fikr to'g'ri emas?

- A) O'quv markazdagi o'quvchilarning ko'pchiligi ona tili va adabiyot fani bo'yicha tahsil oladi.
 B) O'quvchilar testlarga turli metodlar bo'yicha tayyorlanmoqda.
 C) O'quv markazda faqat ona tili va adabiyot fani bo'yicha ta'lim berilmoqda.
 D) Kirish imtihonlaridagi savollar bir nechta turga bo'linadi.

30. «Samarqand til maktabi» metodlari haqidagi matn va diagrammada aks etgan ma'lumotlarga asoslangan holda mazmunan to'g'ri shakllantirilgan gapni aniqlang.

- A) Tahlil natijasida Bahora amaliy savollarni yechish usullarini boshqa barcha o'quvchilarga qaraganda sust o'zlashtirgani aniqlangan.
 B) Tahlil natijasida Kamoliddin «Noto'g'risini chiqarib tashlash» metodini boshqa barcha

o'quvchilardan ko'ra yaxshiroq o'zlashtirgani aniqlangan.

C) Tahlil natijasida Asadbek bilan «Tahliliy o'qish» metodi bo'yicha boshqalarga qaraganda ko'proq ishlash kerakligi aniqlangan.

D) Tahlil natijasida Shahnoza «Savolni oxiridan boshlab yechish» metodini boshqa metodlarga qaraganda yaxshi o'zlashtirgani aniqlangan.